

---

## TAYINLOV



G'aniyev Dostonbek Abdisattor o'g'li Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasi rahbari lavozimiga tayinlandi.

Dostonbek G'aniyev 1993 yilda Qo'shtepa tumanida tug'ilgan. 2018 yilda Farg'ona davlat universitetini, 2021 yilda Farg'ona davlat universiteti magistraturasini tamomlagan.

Dostonbek G'aniyev 2011-2013 yillarda Farg'ona shahar "Huquqiy xizmat" advokatlik firmasi advokat yordamchisi, 2018-2019 yillarda Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Qo'shtepa tumani Kengashining diniy-ma'rifiy masalalar bo'yicha bosh mutaxassisi lavozimlarida faoliyat olib borgan.

Tayinlovga qadar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasining targ'ibot ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha bosh mutaxassisi lavozimida ishlagan.

Oilali, turmush o'rtog'i - Qo'shtepa tumanidagi 1-IDUMI o'qituvchisi, ikki nafar farzandi bor.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-04-04 20:59:02